

Surxondaryo viloyati hokimi Ulug‘bek Qosimov Termiz shahri Manguzar mahallasida bo‘lib, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi bo‘ylab amalga oshirilayotgan obodonlashtirish va tozalash ishlarining borishi hamda infratuzilma holati bilan tanishdi.



Manguzar jinoyatchilikdan holi, infratuzilmasi yaxshilangan mahallaga aylantiriladi

Hududda infratuzilmani yaxshilash, huquqbuzarliklar profilaktikasini olib borish hamda jinoyatchilikdan holi mahallaga aylantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan shahar sektor rahbarlari va mahalla “yettiligi” axborot berdi.

Viloyat rahbari bu boradagi ishlarni tizimli tashkil etish lozimligini ta'kidlab, hududdagi ko'p qavatli turar joylar atrofi tartibga keltirilmaganligi, BSKlar faoliyati yo'lga qo'yilmaganligini tanqid qildi.

Shahar hokimi va mutasaddilarga qisqa muddatda ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etib, BSKlar faoliyatini tashkil etish vazifasi topshirildi.